

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 238 (1299), 2024-yil 23-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## MADANIYAT VA SAN’ATNING JAMIYAT MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI KUCHAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, xususan, teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda o‘tgan yil 22-dekabrda bo‘lgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida aytilgan edi. Mutasaddilar shu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida axborot berdi.

Unga ko‘ra, 2025-2030-yillarda teatrlarda “Milliy qahramon” va “Inson qadri uchun” mavzularida 32 ta turkum spektakllar yaratish taklif etilmoqda.

Sahna asarlarini yaratishda ijodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, dramaturgiya va rejissyorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar bildirildi. Xususan, teatr dramaturglari uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi mukofotlarni ta’sis etish, “Nigoh” ijodiy loyihasini yo‘lga qo‘yish, milliy akademik musiqa san’ati bo‘yicha kompozitorlar tanlovinini o‘tkazish taklif etildi.

Madaniyat va san’atning ta’lim bilan uzviy hamkorligini mustahkamlash, talabalarning teatrlarda amaliy mashg‘ulotlarini kengaytirish, teatr sohasiga oid ilmiy taqdiqot ishiga buyurtmalar berish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Teatr aktyor va rejissyorlari, teatrshunos va san’atshunoslarning mahorat maktablari hamda teatr tanqidchilari va dramaturglar klubi tashkil etilib, ularning faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi. Har yili nodavlat teatrlarga ham davlat buyurtmasi beriladi.

Umumiy va oliy ta’lim muassasalarida havaskor teatr jamoalari tuzilib, ular o‘rtasida tanlovlar o‘tkaziladi. Yoshlarni teatrlarga doimiy tashriflarini nazarda tutuvchi “Teatr — ibratxonadir” dasturi amalga oshiriladi.

Kelgusi yildan O‘zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingi tuziladi. Hududlardagi teatr binolari mukammal ta’minlanib, zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi. Muqimiy

nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatriga “akademik” maqomi beriladi.

Bundan tashqari, taqdimotda soha vakillarini rag‘batlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. 2025-yildan boshlab, madaniyat va san’at, axborot-kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar ish haqi miqdorlari oshirilishi belgilandi.

Moddiy manfaatdorlik xodimning ish samaradorligi (KPI) ko‘rsatkichlariga bog‘lanadi. Unda aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish, ayniqsa, olis hududlarga gastrollar uyushtirish, yangi asarlar yaratish, iqtidorli yosh ijodkorlarni izlab topish kabi mezonlar inobatga olinadi.

Shuningdek, 2025-yildan boshlab O‘zbekiston Milliy simfonik orkestri xodimlarining ish haqlari oshirilib, munosib moddiy rag‘batlantiriladi. Orkestr jamoasi tomonidan davlat buyurtmasi asosida har yili yangi musiqiy asarlar yaratiladi, mahorati dirijyor, orkestr ijrochilarining mahorat maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Orkestr jamoasining yurtimiz hududlari va xorijiy gastrol safarlari, yirik korxonalar va tashkilotlar xodimlari uchun konsert namoyishlari tashkil etiladi.

Shu bilan bir qatorda, davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san’at ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish masalalari bo‘yicha ham alohida topshiriqlar berildi. Xususan, iqtidorli yoshlarni barvaqt aniqlash, saralash va o‘qitish borasida yaxlit tizim yaratish, shuningdek, umumiy o‘rta, maktabdan tashqari, kasbiy, oliy ta’lim tashkilotlari hamda madaniyat va san’at tizimidagi ta’lim muassasalarida o‘quv rejalarini va dasturlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

## STRATEGIK ISLOHOTLAR KUN TARTIBINI YANGI TASHABBUSLAR BILAN BOYITISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabarti bilan uchrashuv o‘tkazdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini joriy yilgi davlat dasturi doirasida amalga oshirishning holati hamda kelgusi yilda islohotlarni yanada ilgari surish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Davlat boshqaruvida kadrlarni tayyorlash

va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuvda O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni doirasidagi keyingi qadamlar muhokama qilindi. Milliy qonunchilikni JST qoidalarini va talablari bilan

uyg‘unlashtirishni jadallashtirish, shuningdek, mamlakatning global reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha ishlarni davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz rejalashtirilgan barcha loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish,

strategik islohotlar kun tartibini yangi tashabbuslar bilan, ayniqsa, mamlakatimizda e’lon qilingan Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yilidagi vazifalarni hisobga olib yanada boyitish muhimligini ta’kidladi.

O‘ZA

## OMILKORLIK BILAN ISH YURITIB IMKONIYATLAR NATIJAGA AYLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

So‘nggi yillarda Xorazmda tadbirkorlik, agrosanoat va xizmatlar izchil rivojlanmoqda. Davlatimiz rahbarining yil boshidagi amaliy tashrifi hamda unda belgilangan vazifalar burcha qo‘shimcha sur’at bag‘ishladi.

Viloyatga kelgusi yil 1,5 milliard dollar investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan. Bu ko‘plab korxonalar, ish o‘rinlari va turmush qonurligiga asos bo‘ladi.

Masalan, Qo‘shko‘pir tumanida 175 gektar yer sanoat zonasiga qo‘shib berilsa, 1 milliard dollarlik loyihalarga yo‘l ochiladi. U yerda elektrotexnika, kimyo, mashinasozlik va farmatsevtika yo‘nalishida 2 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Shovot kanalining himoya zonasi 50 metrdan 25 metrga qisqartirilsa, 30 million dollarlik loyihalarni joylashtirish mumkin bo‘ladi. U yerda 1 trillon so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilib, 2,5 mingta yangi ish o‘rni ochiladi. G‘azovot va Polvon kanallari atrofida ham 50 million dollarlik loyihalar uchun imkoniyat bor.

O‘ZA

## TASHABBUSKORLIK BILAN INVESTITSIYA VA TADBIRKORLIK MUHITI RIVOJLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-noyabr kuni Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Hududlarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar natijasida bu vohada ham keng imkoniyatlar ochilmoqda. Kelgusi yilda Surxondaryoga 2 milliard dollar investitsiya jalb etish, 425 ming aholini band qilish va eksportni 320 million dollarga yetkazish reja qilingan.

Masalan, “Ayritom” xalqaro savdo zonasida bir oyda o‘rtacha 5 million dollarlik mahsulot sotilyapti. Uning hududi 150 gektarga kengaytirilsa, yana 250 million dollarlik loyihalarga joy bo‘ladi.

Xitoylik investorlar Bobotog‘ hududidagi mis va kumush konlariga 2,7 milliard dollar investitsiya kiritib, 2 ming ish o‘rni yaratishni taklif qilyapti. Buning natijasida yiliga 600 million dollarlik tayyor mahsulot eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Sherobodning Vandob va Chorbog‘ hududlari esa volfram, ko‘mir, osh tuzi, kvarts qumi kabi tabiiy resurslar zaxirasiga boy. Bu konlarga 320 million dollar investitsiya jalb qilib, 1,5 ming ish o‘rni yaratish mo‘ljallangan. Bandixon tumanidagi 50 gektar maydonda Termiz erkin iqtisodiy zonasining filialini ochish rejalashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligida ham ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p. Masalan, Boysun va Uzun tumanlari tabiiy kavrak yetishtirish uchun qulay. 18 ming gektar yaylov va o‘rmon yerlari shu maqsadda aholiga berilsa, 4 ming odamning

bandligi ta’minlanadi. Uzun, Sho‘rchi va Qumqo‘rg‘ondagi xuddi shunday yaylovlarda qo‘yichilik va qoramolchilik majmuasi tashkil etish mumkin.

Muzrabotdagi 17 ta kollektorda yig‘iladigan suv qariyb 4 ming gektarda sholi yetishtirish imkonini beradi. Bu orqali yiliga 8,5 ming tonna guruch olinadi, 400 nafar odam doimiy, yana 4,5 ming nafari mavsumiy ish bilan band bo‘ladi.

Qiziriq tumanida 300 gektarda issiqxona, Oltinsoyda 1 ming gektarda uzumzor tashkil etib, bozorbop mahsulotlar yetishtirish ham yaxshi iqtisodiy samara beradi.

Sangardak, Omonxona, Boysun hududida turizm sharoitlarini yaxshilab, kamida 1 million sayyohni jalb qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Yig‘ilishda Surxondaryo viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish, konlar negizida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, savdo va xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Dehqonchilik uchun ajratilayotgan har bir maydon aholi bandligi va oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlandi.

O‘ZA

## Munosabat

## DEPUTATNING QALBI, VIJDONI UYG‘OQ BO‘LSA,

VAZIRLAR HAM, HUKUMAT HAM, PARLAMENT HAM UYG‘OQ BO‘LADI...

## Buriilish nuqtalari

Yangi O‘zbekiston uchun muhim burilish nuqta xususida gap ketsa, shubhasiz, Bosh qonunimizning yangi tahrirda qabul qilingan sanasi e’tirof etiladi va bu haqiqat. Zotan, Uchinchi Rennans sifatida ko‘rilayotgan shiddatli islohotlar davrining, eng avvalo, huquqiy poydevorini mustahkamlamasdan turib, kutilgan natijalarga da’vo qilish yangilish to‘xtamdir.

Parlament va mahalliy kengashlarga joriy yilning 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan saylov mutlaqo yangilangan huquqiy normalar asosida va shaklan milliy davlatchiligimiz uchun yangi tajriba asosida tashkil etildi. Ya’ni Qonunchilik palatasi saylovi mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida o‘tkazildi.

Davomi 3-betda



## Kambag‘allikdan farovonlik sari

## KECHA “AYOLLAR

## DAFTARI”DA EDI,

## BUGUN ISH BERUVCHIGA

## AYLANDI



Uch farzandning onasi Zilola Nishonova Oltiariq tumanidagi “Ko‘mirchi” mahalla fuqarolar yig‘inida yashaydi. Ishsizligi bois, “Ayollar daftari”ga kiritilgan Zilola tikuvchilikdan yaxshigina boxabar edi. Unga bu yo‘nalishda yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun 33 million so‘m imtiyozli kredit berildi. Dastlab uy sharoitida tikuvchilik qildi. Shu tariqa yumushlarini yengillatib, asta-sekin qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratdi, daromadini ko‘paytirib boshladi.

Davomi 4-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## IJRO INTIZOMI — SAMARADORLIKNING BOSH OMILI

Mana shunday g‘oyat tahlilakali vaziyatda biz faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Jamiyat hayotining barcha jabhasida islohotlar samarali amalga oshirilishi va ko‘zlangan maqsadlarga erishish, birinchi navbatda, davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘inida mustahkam ijro intizomining zarur darajada ta’minlanishiga bog‘liq. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”.

Davomi 2-betda





## Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

## IJRO INTIZOMI – SAMARADORLIKNING BOSH OMILI

**Akmal JUMANAZAROV,**  
**Vazirlar Mahkamasi**  
**huzuridagi O'zbekiston texnik**  
**jihatdan tartibga solish**  
**agentligi direktori**

## Boshlanishi 1-betda

Rahbar o'zi mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning haqiqiy ahvolini tanqidiy baholay olishi, mas'uliyat bilan, javobgarlikni his qilgan holda jamoasini bir yo'lda boshqarish orqali vazifalar bajarilishini ta'minlay olishi mumkin. Har bir topshiriq ijrosi zamirida esa xalqimizning muammoli masalalari hal bo'lishini unutmash zarur.

Davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish jarayonida har bir xodim o'z zimmasidagi vazifalarni vijdonan, sifatli va mas'uliyat bilan belgilangan muddatda bajarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish, nazoratni amalga oshirish shakllarini takomillashtirish, talabchanlikni kuchaytirish va belgilangan vazifalar bajarilishini ta'minlash borasidagi ishlar davlat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar bilan kuchaytirilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni va 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi davlat idoralarida ijro intizomini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur hujjatlarda ijro intizomini mustahkamlash, yagona va uzluksiz texnologik zanjirni tashkil qilish bo'yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari shaxsan e'tibor qaratishi lozim

bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu esa o'z navbatida, topshiriqlarni hisobga olish va bajarish muddatlarini nazorat qilib borish imkonini yaratadi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi mas'ul bo'lgan hujjat va topshiriqlar tahlil qilganda 2024-yil yanvar-oktabr oylari davomida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olingan jami 277 ta topshiriq ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan.

Shuningdek, 2024-yil noyabr-dekabr oylarida muddati keladigan topshiriqlar jami 51 tani tashkil etib, shundan 31 tasi bajarilgan, 20 tasining ijrosini joriy yil 15-dekabrga qadar ta'minlash choralari ko'rilmoqda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha katta marralar belgilangan. Bu borada texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va metrologiya masalalari, shuningdek, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun ko'rilayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvinin yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, sohadagi davlat boshqaruvi takomillashtirilib, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Vazirlar Mahkamasi bo'yisunuviga o'tkazildi hamda yangi vazifalar belgilab berildi.

Mazkur vazifalarni to'laqonli amalga oshirish borasida agentlik tomonidan qator tizimli ishlar bajarildi. Xususan, qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish, "Ijro.gov.uz" tizimidagi topshiriqlarni bajarish maqsadida har hafta dushanba kuni rahbar huzurida, chorshanba va juma kunlari rahbar o'rinbosarlari huzurida muhokamalar o'tkazib kelinmoqda.

Bundan tashqari, topshiriqlar bajarilishini kunlik ta'minlash bo'yicha oylik taqvim jadvallarni tasdiqlash hamda topshiriqlar bajarilishini ta'minlash yuzasidan rahbar o'rinbosarlarining "yo'l xaritalari" orqali amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, barcha darajadagi tarkibiy tuzilmalar rahbarlari va xodimlar faoliyati samaradorligi KPI orqali baholab borilmoqda. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasida har hafta grafik asosida vazirlar va idoralar rahbarlari o'rinbosarlari va nazorat bo'limlari boshliqlarining hisobotini eshitib borish

qurilish, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, metallurgiya, kimyo, ekologiya kabi sohalarga doir 1,4 mingdan ortiq xalqaro standart olinib, ularning 1,1 mingtasi respublikada qabul qilindi.

Standartlarni hayotga tatbiq etishda vazirlik va idoralar huzuridagi standartlashtirish

Joylarda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda ishlar tashkil qilinib, respublikadagi 900 dan ziyod korxonaga menejment tizimlari standartlari joriy qilinishida amaliy ko'mak berildi.

Eksportyor korxonalariga alohida e'tibor qaratgan holda Yevropa Ittifoqining muvofiqlik belgisi — CE markirovkasini rasmiylashtirish maqsadida 30 ta korxonalar bilan amaliy ishlar qilindi.

Metrologiya yo'nalishida milliy etalonlar bazasini rivojlantirish maqsadida qiymati qariyb 18 milliard so'm bo'lgan

3 ta etalon xarid qilishga doir tashkiliy ishlar bajarilmoqda, 100 ga yaqin o'lchash vositasi va yordamchi uskunalar xarid qilindi. Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (OIML) hujjatlari asosida 8 ta milliy standart qabul qilindi.

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosi (BIPM) bazasida ilk bor respublikamizning 5 ta kalibrash va o'lchash imkoniyati to'g'risidagi yozuvlari (SMS qatorlar) ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan ilk bor ionlovchi nurlanish yo'nalishida "Uz" indikatori yangi qo'shimcha solishtirish loyihasi (COOMET 909/Uz/24) e'lon qilindi.

Davlat nazorati yo'nalishida tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning bugungi kun talabiga sifat jihatidan mos kelishini nazorat qilish maqsadida agentlikning Nazorat inspeksiyasi tomonidan joriy yil 9 oyida 361 ta korxonada tekshirish o'tkazildi. Natijada umumiy qiymati 13 milliard so'mlik 1255 turdagi (87 foiz) nomuvofiq mahsulotlar, 87 milliard so'mlik 158 ta muvofiqlik sertifikatizatsiya realizatsiya qilinayotgan mahsulotlar, 7,1 mingtadan 3,4 mingta (49 foiz) qiyoslanmagan o'lchash vositasi aniqlandi.

Prezidentimiz joriy yil fevral va oktabr oylarida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlar holati va rejalar bilan tanishdi. Tashqi bozorga chiqish uchun samarali texnik jihatdan tartibga solish tizimi shartligini ta'kidlab, qo'shimcha vazifalarni belgilab berdi. Xususan, bugun yurimizdagi 269 ta laboratoriyadan atigi 64 tasida

o'tkazilgan sinovlar xalqaro darajada tan olinadi. Oqibatda tadbirkorlar o'z mahsulotini eksportga chiqarish uchun qo'shimcha sinovlar o'tkazishga majbur bo'lmoqda. Shu bois, xalqaro tan olinadigan, elektr texnikasi, qurilish materiallari, mashinasozlik kabi sohalarda 10 ta yangi laboratoriya tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidan bormoqda. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qonunchilikni ushbu tashkilot talablariga moslashtirish muhimligi yana bir bor ta'kidlandi.

Bu yil 340 ta milliy standart, 2025-yil yakunigacha yana 38 ta reglament ishlab chiqiladi. 28 ta texnik qo'mitani, laboratoriyalar faoliyatini raqamlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun "Texnik tartibga solish" elektron platformasi ishga tushirildi.

Albatta, sohada sifat va samarani ta'minlash uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, xalqaro standartlar asosida ishlaydigan mutaxassislar kerak. Shu bois, sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Yuqoridagi topshiriqlar hamda joriy yil 20-noyabr kuni davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomidini ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan majlisida belgilab bergan ustuvor vazifalarini amalga oshirish uchun shaxsiy mas'uliyat, intizom va nazoratni bir necha karra kuchaytirish talab etiladi.

Buning zamirida esa tadbirkorlikni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarayotgan mahsulotlar sifati va raqobatchilikni oshirish, aholini sifatsiz mahsulotlardan himoya qilish, xalqimizning farovonligini yanada oshirish kabi ulug' maqsadlar mujassam.

Bu borada O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi jamoasi barcha kuch va imkoniyatini safarbar etish orqali o'z oldiga qo'ygan vazifalar ijrosini ta'minlaydi.

## Taraddud

## TAYYORGARLIKNI QISH SINOVDAN O'TKAZADI



"Qish g'amini yozda yeyish kerak" degan maqol bugungi kunda ham dolzarb. Qish kunlarida qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun bu mavsumga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rish, taraddudni oldinroq boshlash taqozo etiladi.



Navoiy viloyatida ham aholi va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni kuz-qish mavsumida energiya manbalari bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Joriy yilda "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Navoiy hududiy filiali bu borada aholini qiyin kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha manzilli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 287 kilometr yangi elektr tarmog'i tortildi va qo'shimcha 42 ta transformator o'rnatildi. Hozir filial tomonidan 268 ming 168 ta aholi xonadoni, 18 ming 795 ta tadbirkorlik subyekti hamda ijtimoiy soha obyektiga elektr energiyasi belgilangan tartibda uzluksiz yetkazib berilmoqda.

Viloyatda joriy kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida 1500 kilometr tarmoq, 7 ta podstantsiya va 367 ta transformator mukammal, 3 ming kilometr tarmoq, 74 ta podstantsiya va 900 ga yaqin transformator joriy ta'mirlandi. Shuningdek, ehtimoliy avariya holatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida zaxira materiallari tayyorlab qo'yildi. Buning uchun viloyat bo'yicha 75 ta maxsus guruh tashkil etilib, 334 ta mutaxassis

va xodim jalb qilindi hamda ularga 98 ta texnika birkirib berildi. Hozir tunu kun navbatchilik qilinib, murojaatlar uchun qisqa raqamli "Call markaz"lar faoliyati yo'lga qo'yilgan, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Navoiy hududiy filiali bo'lim boshlig'i Husniddin Xo'jayev.

Viloyatning barcha shahar va tumanlarida kuz-qish mavsumiga tizimli tayyorgarlik ko'riladi. Rejalashtirilgan ishlar yakuniga yetkazildi. Ayni vaqtda Karmana tumanida yuqori kuchlanishli 12 ta podstantsiya, 413 ta transformator hamda 1450 kilometr havo elektr uzatish tarmog'i mavjud bo'lib, aholini muntazam elektr energiyasi bilan ta'minlab kelmoqda.

Joriy mavsumda elektr tarmoqlarida yuzaga keladigan avariylarni bartaraf etish maqsadida tuman ham 8 ta maxsus brigada tashkil etilib, kerakli asbob-uskunalar, aloqa vositalari hamda materiallar bilan ta'minlandi. Ayni vaqtda elektr energiyasi ta'minotini yanada yaxshilash uchun hududlarda so'ngi sozlash va nazoratga olish ishlari amalga oshirilmoqda.

Kuz-qish mavsumi betalafot va ko'ngildagidek o'tishi gaz ta'minoti bo'yicha ko'rilgan tayyorgarlikka bog'liq. Har qanday

ob-havo sharoitida iste'molchilarga tabiiy gaz bir maromda va suyultirilgan gaz o'z vaqtida yetib borishini ta'minlash o'ziga yarasha mehnat va hozirlikni talab etadi. Ushbu yo'nalishda ham "Hududgaz Navoiy" gaz ta'minoti filiali tomonidan qator chora-tadbirlar ko'rdi. Bugungi kunda mavsumga zaxira materiallar ham tayyorlab qo'yilgan. Shuningdek, 92 ta ishchi-xodimdan iborat 19 ta avariya brigadasi tashkil etildi.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlikni manzilli dasturlar va belgilangan chora-tadbirlar rejasiga asosan, yilning birinchi choragidanoq boshlaganmiz. Shu asosida gaz tarmoqlari ta'mirlandi va qo'shimcha yangi tarmoqlar tortildi. Nosoq gaz taqsimlash punktlari to'liq yangisiga almashirildi. 1762 ta gaz taqsimlash punkti texnik nazoratdan o'tkazilib, mavsumga shay holatga keltirildi. Viloyat bo'yicha 233 kilometr gaz quvuri holati belgilangan tartibda tekshirildi. Birgina Karmana tumanida respublika va mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar evaziga qo'shimcha 7,5 kilometr gaz quvuri tortilib, aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yaxshilandi. Gaz yetib bormagan hududlar aholisiga belgilangan jadval asosida suyultirilgan gaz ballonlari o'z vaqtida yetkazib berilmoqda, — deydi "Hududgaz Navoiy" gaz ta'minoti filiali bo'lim boshlig'i Asqar Nabiyev.

"Navoiyshahargaz" gaz ta'minoti korxonasida ham kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik nihoyasiga yetmoqda. Shu maqsadda hududda 1,1 kilometr gaz quvuri rekonstruksiya qilindi, 2 ta gaz taqsimlash quzilmasi kapital ta'mirlandi. 26,7 kilometr gaz quvuri bo'yilib, estetik jihatdan tartibga keltirildi va 205 ta gaz taqsimlash quzilmasi texnik nazoratdan o'tkazildi.

Ayni vaqtda viloyatda shahar va tumanlar kesimida aholiga ko'mir ham yetkazib berilmoqda. Ko'mirga ehtiyoji bo'lgan oilalar mahalla fuqarolar yig'inlariga murojaat qilib, xonadonlariga arzon narxda ko'mir olmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ishlar tizimli tashkil etilgan bo'lib, olis hududlarda yashovchi aholi xonadonlari ham ko'mir bilan ta'minlanmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



## 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

Shu kunlarda yurtimizda Konstitutsiyamizning 32 yilligini munosib kutib olish va keng nishonlash uchun qizg'in hozirlik ko'rilmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 17-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishida "Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!" degan g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish belgilangan.



## HAR BIR MILLATNING SAODATI YOSHLARNING TA'LIM-TARBIYASIGA BOG'LIQ

Ta'lim sohasini rivojlantirishda Konstitutsiyamiz asosiy o'rin tutadi. Chunki aynan qonunchilik normalari nafaqat chegaralarni, balki butun o'qitish jarayoniga asos bo'lgan tamoyillarni belgilab beradi. Bosh qonunimizda ta'lim masalalariga bag'ishlangan alohida modda mavjud. Jumladan, 50-moddasiga ko'ra, har bir shaxs to'g'ridan to'g'ri ta'lim olish huquqiga ega, davlat uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishni ta'minlaydi, maktabgacha ta'lim va tabiiy rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, umumiy o'rta va boshlang'ich kasb-hunar ta'limining bepul bo'lishini kafolatlaydi.

Bugun mamlakatimizda ikki milliondan ortiq bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradi. So'nggi yillarda bu borada juda katta tizimli islohotlar amalga oshirildi. Misol uchun, 2016-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov darajasi 27,7 foizni tashkil etgan. Bu degani har to'rt bolaning biri bog'chaga borgan, deganidir. Ayni paytda esa bu ko'rsatkich 72 foizdan oshdi. Bu qisqa vaqtda erishilgan juda katta yutuq.

2022-yilda Finance Inquirer nashri RGCA xalqaro tadqiqoti natijalari va UNICEF, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma'lumotlariga tayanib, bolalarni

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan peshqadam 10 davlatni e'lon qildi. O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

Yana bir misol. 2016-yilgacha 5211 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Bugun ularning soni 5-6 barobar ortdi. Ushbu natijaga erishilishida, albatta, sohaga xususiy sektor jalb qilinishi, ularga berilgan imtiyoz va rag'batni alohida qayd etish kerak.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 51-52-moddalari esa maktab va oliy ta'lim bilan bog'liq. Ta'lim olish huquqi to'g'risidagi moddalarning kiritilishi fuqarolar uchun ko'pgina afzalliklar yaratadi. Xususan, bu ta'limni insonning asosiy huquqi sifatida qabul qilishni kuchaytiradi, ushbu huquqning mustahkamlanishi, yanada ishonchli va barqaror himoya qilinishini ta'minlaydi. Qolaversa, aniq me'yor va tamoyillarga asoslangan qulay ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Eng muhimi, barcha fuqarolar uchun ta'lim olishda ko'proq teng imkoniyat yaratishga yordam beradi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholiga ta'limning barcha

bo'yidan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish, o'qitish tizimini yuqori sifat darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish doirasida olis va chekka hududlarda joylashgan maktab o'quvchilari uchun bepul avtobuslar qatnovini yo'lga qo'yish, maktablarni toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash, yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar, multimedia dasturlarini yaratish, kasb-hunarga o'rgatish kurslarini ochish hamda xorijiy tillarni o'rganish masalalarini qamrab olgan.

Ta'limga sarmoya kiritish mamlakat kelajagiga sarmoya kiritish degan g'oyaga tayvansak, oliy ta'limni rivojlantirish nafaqat yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, balki ijodiy fikrlash, tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Ushbu omillar barqaror jamiyatni shakllantirishga yordam beradi.

Lutfulla SUVONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



DUNYO  
nigohidaO'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING  
YANGI BOSQICHI, SHUBHASIZ,  
ULKAN IMKONIYATLAR VA  
RIVOJLANISH DAVRI BO'LADI  
Xorijiy ekspertlar O'zbekiston yetakchisining  
mamlakat yangi parlamenti palatalari majlislarida  
so'zlagan nutqlari haqida

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 18-20-noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati majlislaridagi ma'ruzalari xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari katta qiziqish uyg'otdi.

Xorijiy ekspertlar ushbu voqealarni sharhlar

ekan, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarga xalqaro standartlarning joriy etilishi o'z samarasini berayotganiga e'tibor qaratmoqda. Ayni paytda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yimoqda, mamlakat o'z oldiga ulkan va aniq maqsadlarni belgilab olgan.

zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, jumladan, muqobil energetikaning rivoji kabi yutuqlar juda hayratlanarli. Bularning barchasi O'zbekiston barqaror va ekologik toza taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotganini anglatadi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilab berilgan maqsadlar shunchaki ulkan realer emas, balki aholi turmush darajasini oshirishning real asosidir. Ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, kambag'allikni qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish va innovatsion yechimlarni joriy etish kelajak avlodlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanishning global tendensiyalariga mos keladigan "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot" yili deb e'lon qilinishi mamlakatning ekologik mas'uliyati va kelajak uchun tabiiy resurslarga g'amxo'rlik qilish majburiyatini tasdiqlaydi.

Hukumat va parlament o'rtasidagi shaffof hamkorlik, jamoatchilik nazoratining kuchayishi, xalqaro aloqalarga e'tibor qaratilayotgani islohotlar uchun mustahkam siyosiy-ijtimoiy asos yaratadi.

O'yashimcha, O'zbekiston taraqqiyotining ushbu yangi bosqichi, shubhasiz, katta imkoniyatlar va rivojlanish davri bo'ladi. O'zbekiston hukumati va xalqiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda muvaffaqiyatlar tilayman.

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan harakat dasturini ham taqdim etdi.

Xotin-qizlar va yoshlarning mamlakat siyosiy hayotidagi faolligini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Yangi parlamentda ayol deputatlar ulushi 38 foizga yetdi, bu esa tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini mustahkamlashda muhim qadamdur.

O'zbekiston Prezidenti 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishni taklif qildi. Ushbu qaror O'zbekistonning ekologik toza texnologiyalarga o'tish va "yashil" standartlarni joriy etishga sodiqdligini bildiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarlar malakasini oshirish, dolzarb masalalarni samarali hal etish imkonini beradigan parlament va hukumat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi mexanizmlarini joriy etish zarurligini alohida urg'uladi.

Bu tashabbuslar O'zbekiston tarixida milliy o'zlikni mustahkamlash, ijtimoiy farovonlik va xalqaro jarayonlarda faol ishtirok etishga qaratilgan yangi bosqich boshlanishi belgisidir.

holda tizimli asosda mamlakat siyosiy tizimini takomillashtirish, jamiyatda siyosiy plyuralizm darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar izchil davom etayotgani buning tasdiqi'dir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi parlamentdagi nutqida ta'kidlaganidek, bunday islohotlarni amalga oshirish uchun ko'plab davlatlarga o'nlab yillar kerak bo'ladi. Men davlatingiz yetakchisining fikriga to'liq qo'shilaman. O'zbekiston bunga ishonch bilan va juda qisqa vaqt ichida erisha olgan kam sonli davlatlardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.



Iqtisodiy ko'rsatkichlar ham izchil siyosat yuritilayotgani va "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad — yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish to'g'riligini tasdiqlaydi. 2024-yilda YIM 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu sur'atda iqtisodiy o'sish 2030-yilga borib, 200 milliard dollarga yetishi mumkin.

Kelajakka nazar tashlash, izchil siyosat yuritish O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ajoyib fazilatlar bo'lib, yangi parlamentga ega bo'lgan yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'yayotgan davr kelganiga ishonish imkonini beradi.

"Dunyo" AA

## Munosabat

DEPUTATNING QALBI,  
VIJDONI UYG'OQ BO'LSA,  
VAZIRLAR HAM, HUKUMAT HAM,  
PARLAMENT HAM UYG'OQ BO'LADI...Zulayho AKROMOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

## Boshlanishi 1-betda

Xo'sh, parlamentga "kirib kelish yo'li" yangilangan ekan, bu yangilanish keyingi faoliyatda o'z aksini qanchalik topadi?

Bugun yangi saylangan deputatlar qalbidan ana shu savol hukmronlik qilmoqda. Ayniqsa, yangi shakllangan parlamentning Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisi va unda Prezidentimiz nutq so'zlagani, ilgari surilgan tashabbus va takliflar, bildirilgan fikrlar deputatlar shijoatiga shijoat qo'shib, ularda mustahkam ishonch, daxldorlik va birdamlik hislarini uyg'otganini alohida qayd etish mumkin.

Bunga olib kelgan muhim jihatlarning ayrimlariga alohida to'xtalib o'tish orqali yaqinda bo'lib o'tgan saylov va uning natijasi yangi O'zbekiston tarixidagi yana bir muhim burilish nuqtasi bo'lganini ko'rib chiqishga jazo etdik. Zero, aynan hozir ortga bir nazar tashlash, o'zimizni tanqidiy tahlil qilish orqali istiqbolidagi faoliyatimiz samaradorligini ta'minlash yo'llarini belgilab olish fursati deb hisoblaymiz.

Uchinchi Renessansga  
birinchi qadam

O'zbekiston o'z oldiga Uchinchi Renessansni amalga oshirishdek ulkan va tarixiy maqsadlarni qo'yaniga ko'p bo'lgani yo'q. Shu maqsadda so'nggi yillar davomida islohotlar ko'lami kengaygani ham bor gap. Ularning shiddati esa alohida e'tirofga molik. Bugun nafaqat kechagi kun bilan yashab bo'lmaydi, balki hatto buguning o'zi bilan yashash ham amalda ortda qolishni anglatadi.

Fikrlarimizning amaliy isboti sifatida yig'ilishda ochilgan quyidagi raqamlarni hech ikkilanmasdan keltirish mumkin. Davlatimiz rahbari o'tgan besh yildagi dasturlar ijrosiga to'xtalib o'tar ekan, ushbu vaqt mobaynida iqtisodiyot 2 karra o'sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshganiga alohida urg'u berdi. Bu aholi jon boshiga daromad 3 ming dollarga yetishini kutishga to'la haqli ekanimizga ishora.

Bozor ustiga, ushbu davr mobaynida eksport qariyb 2 barobar o'sib, ilk bor 25 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari esa 40 milliard dollardan oshgani ham tariximizda yangi zabt etilgan maralaridir.

O'z navbatida, ijtimoiy islohotlar va ularning natijalari diqqat markazimizda ekanidan kelib chiqib, ular haqida ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Bu borada so'z ketar ekan, eng avvalo, ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishlari ko'z oldimizga kelishi tabiiy. Quvonarlisi, so'nggi besh yildagi islohotlar to'liqini ushbu muhim ikki sohani ham chetlab o'tmaganini bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, shu davr ichida maktabgacha ta'limga qamrov 74 foizdan, oliy ta'limga esa 39 foizdan oshgani, barcha hududlarda "Inson" markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, ijtimoiy xodimlar tomonidan bevosita mahallalarda aholiga 100 dan ortiq turdagi ijtimoiy xizmat ko'rsatilayotgani islohotlar mevasidan, avvalo, xalqimiz bahramand bo'layotganini anglatadi.

Quvonarlisi, iqtisodiy yo'nalishdagi sa'y-harakatlar ham kelajakka optimistik ruhda qarashga ishonchni mustahkamlayotganidir. Zero, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, barcha imkoniyatlar ishga solingani tufayli bu ko'rsatkich joriy yilning o'zidayoq 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Eng asosiysi, tanlagan yo'limizdan o'g'ishmay, sur'atni pasaytirmay, bir bo'lib ishlashimiz orqali 2030-yilga borib, iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish imkoniyatimiz mavjudligi barchani ruhlantirgani tabiiy.

## Barchasi inson uchun

Agar islohotlarda gumanizm g'oyalari mavzusida ilmiy izlanish qilinsa, tadqiqotchi uchun ma'lumotlar bazasi shu qadar katta bo'ladi, bu ishing tez va oson bitishiga mustahkam zamin bor.

Albatta, bu tashbehni har kim o'zicha qabul qiladi va bunga haqli, ammo bir haqiqat bor, uni hech bir jihat bilan inkor etib bo'lmaydi. U ham bo'lsa, yangi O'zbekiston islohotlar mohiyatida, tub zamirida va markazida, eng avvalo, inson manfaati yotadi. Har



qanday yo'nalishdagi islohotlar alohida olinib, o'rganilsa va tadqiq qilinsa, pirovard maqsad xalqimiz turmush darajasini tadarjiiy ravishda yaxshilab borish ekanini yuzaga chiqib kelaveradi.

Partiyamiz dasturiy maqsadlari hamda saylovchilarimiz bilan uchrashuvlarda ilgari surgan g'oyalarni mazmunidan kelib chiqib, yig'ilishda ilgari surilgan nihoyatda xayrli bir tashabbus aslida mazkur maqola ustida ish boshlashga turki bo'lganini tan olishimiz kerak.

U ham bo'lsa, 2025-yilda 1 million aholini kambag'allikdan chiqarishdek xayrli maqsad Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy kompleksining asosiy vazifasi etib belgilanganidir.

Bir million kichkina raqam emas va uni amalga oshirish ham oson kechmaydi. Buning uchun har birmizdan, avvalo, birdamlik, qat'iylik, intizom va mehnat talab etiladi. Nima bo'lganda ham uni amalga oshirish imkoniyati mavjudligi xususida o'ylar ekanimiz, bu yo'nalishda so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar va orttirilgan tajriba, erishilgan natijalarga bir qur nazar solish istagi tug'ildi.

Dastavval, yangi davrda kambag'allik va uning darajasi davlat siyosatida rasman e'tirof etilgani va bartaraf qilishga doir tizimli chora-tadbirlar ko'rib kelinayotganini qayd etish joiz. Bu borada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar esa islohotlar samaradorligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni orqali ushbu yo'nalishga tadbirkorlarni ham faol jalb etish rag'batlantirildi.

Jumladan, yangi ish o'rinlari yaratib, ularga og'ir iqtisodiy ahvoldagi oilalardan ishchilar jalb qilgan tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar va boshqa yengilliklar berila boshlandi.

Mazkur hujjatning uzviy davomi o'laroq, Prezidentimizning joriy yilning 23-sentabr kuni qabul qilingan "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmoni ham ayni yo'nalishdagi islohotlar silsilasida muhim ahamiyat kasb etdi.

Hujjatda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlangani kambag'allik darajasini 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqartirishga imkon yaratgani hamda 2025-yil yakuni bilan kambag'allikni 6 foizgacha qisqartirish maqsad qilingani qayd etilgan. Shuningdek, aholining yuqori daromadli barqaror ish bilan bandligini ta'minlash, yoshlarning innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim olishi va kasb-hunar o'rganishi, barcha qatlamlarning tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoit yaratish hamda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilangan.

Ushbu maqsadda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi ma'quullandi va "Kambag'al oilalar uchun yetitta imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshirila boshlandi.

Bu esa yig'ilishda oldimizga qo'yilgan ulkan maqsadni hayotga tatbiq etishda faqatgina o'zaro hamjihatlik bilan, joylarga chiqqan holda haqiqiy ahvolni atrofiga o'rganib, manzilli ishlarni amalga oshirishimiz lozimligini anglatadi. Zero, natija bilangina

**“**Davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-sentabrdagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ham e'tirof etish joiz. Unga muvofiq, ajratiladigan kreditlarning eng kam miqdori 300 million so'mgacha oshirildi.

xalqimiz haqli ravishda bizdan kutayotgan istiqbolni ularga taqdim eta olishimiz mumkin.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish joiz.

So'nggi yillarda davlat rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvi an'ana tusini oldi. Ushbu uchrashuvlar davomida tadbirkorlar o'zlarini qiziqitgan savollarga javob olish bilan birga, qiyayotgan muammolarga yechim topayotgani bor gap. Eng asosiysi, uchrashuvlarda berilgan topshiriqlar va bildirilgan takliflar asosida qabul qilinayotgan qator hujjatlar, avvalo, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, aholi bandligini ta'minlashga turki bo'lmoqda.

Bunga misol qilib Prezidentimizning 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini alohida e'tirof etish joiz.

Ular muvofiq, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi qabul qilindi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning yagona tizimi yaratildi. Ilk bor 100 million so'mgacha garovsiz kreditlar berila boshlandi. Buning shartlaridan biri esa yangi ish o'rinlari yaratishdan iboratligi fuqarolar bandligini ta'minlash darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda, albatta.

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining 2024-yil 7-sentabrdagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ham e'tirof etish joiz. Unga muvofiq, ajratiladigan kreditlarning eng kam miqdori 300 million so'mgacha oshirildi.

E'tiborsiz, mas'ul sifatida belgilangan banklar faqatgina kredit ajratish emas, ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlaltilishi jarayonida ham tadbirkor bilan hamkorlikda ishlayotgan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda muhim omil bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, kelgusi yil oldimizga qat'i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir. Buning uchun yagona Vatani, ko'p millatli yagona ahil oila tuyg'usi har birmizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim".

Marra baland,  
ishtiyoq ham

Muxtasar aytganda, Oliy Majlis palatalarining har ikkida o'tgan yig'ilishlar qisqa va uzoq istiqbolidagi islohotlar chizgisi sifatida tarixga muhriandi. Biz, deputatlar uchun esa burilish nuqtasi bo'ladi.

Oldimizda turgan ulkan va ezuq maqsadlarni amalga oshirish, xalqimiz ishonchini oqlash va yurtimiz farovonligini ta'minlashda Prezidentimizning quyidagi fikrlari barchamizga dasturlamal bo'lib xizmat qiladi:

"Hech qachon unutmashimiz zarur: mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O'zbekistonni o'zi uchun ona Vatani deb biladigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir. Buning uchun yagona Vatani, ko'p millatli yagona ahil oila tuyg'usi har birmizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim".

Antonio Alonso,  
San-Pablo universiteti professori  
(Ispaniya):

— Oliy Majlis palatalari majlisida qabul qilingan qarorlar va bildirilgan tashabbuslar O'zbekistonni rivojlantirishning aniq strategiyasi, har bir fuqaro haqida g'amxo'rlik qilishdan dalolat beradi.

Abdulla Aripov nomzodining Bosh vazir lavozimiga ma'qullanishi va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari belgilanishida izchil hamda istiqbolli yondashuv muhimligi ta'kidlangan. Ayniqsa, so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining ikki barobar ortishi, investitsiya va

Abdulhamid Hamid Abdulla al-Kubbiy,  
"Tanmah Press" sayti bosh muharriri, "Masarat  
Center for Strategy & Media" strategiya va media  
markazi eksperti (Saudiya Arabistoni):

— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislaridagi nutqi mamlakat siyosiy hayotida tarixiy ahmiyatga ega voqea bo'ldi.

Prezident ilk bor aralash saylov tizimi asosida bo'lib o'tgan saylovlar parlamentning xalq vakilligining asosiy instituti sifatidagi rolini kuchaytirishda muhim qadam bo'lganini alohida ta'kidladi. Yangi Konstitutsiyada Oliy Majlis palatalariga katta vakolatlar berilgani davlat boshqaruvinin yanada samarali amalga oshirish uchun zamin yaratmoqda.

O'zbekiston yetakchisi o'z nutqlarida iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish kabi ulkan maqsadlarni belgilab berdi. Shuningdek, Prezident yangi hukumatning

Ramzi Yusifov,  
MDH Parlamentlararo Assambleyasining  
Demokratiya, parlamentarizm rivojlanishi va  
fuqarolarning saylov huquqlariga rioya etilishini  
monitoring qilish xalqaro instituti Boku filiali  
xodimi (Ozarbayjon):

— Men O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar endi ortga qaytmas darajada tus olgani haqida aniq xulosaga keldim. O'zbekistonda saylov sohasidagi xalqaro tajribani hisobga olgan

Viktor Kim,  
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasining  
Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy  
xodimi:

— Mamlakat yetakchisining Oliy Majlis palatalaridagi ma'ruzasi yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'yishning boshlanishi sifatida tarixga kiradi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, yangi O'zbekistonni bunyod etish milliy g'oyasi aniq maqsadlarga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda yaqinda muhim siyosiy tadbirlar bo'lib o'tdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq yangi parlament tuzildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning maqsad va vazifalari, ilgari surilgan g'oyalar e'lon qilingan majlislarida ishtirok etishi, mohiyatan, Oliy Majlisga, xalqqa navbatdagi Murojaatiga aylandi.

O'zbekistonda 2023 va 2024-yillardagi siyosiy jarayonlar dinamikasi nafaqat tezligi, balki saylov tizimidagi eng ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lami va ochiqligi bilan ham hayratlanarlidir.

Yoshlar va xotin-qizlar soni muttasil ortib borayotgan deputatlik korpusida tegishli ravishda 11 nafar (7,5 foiz) yoshlar va 57 nafar (38 foiz) ayollardan iborat deputatlar tarkibidagi sifat o'zgarishlarini alohida ta'kidlash kerak.



## Boshlanishi 1-betda

Yoniga yana 6 nafar ishsiz mahalladosh qizni olib, bolalar va ayollar milliy liboslari, uy-ro'zg'or anjomlari, ko'rpa-to'shak tikishni yo'lga qo'ydi. Uning sifatli kiyim-kechaklari vodiy bozorlarida xaridorgir. Buyurtmalar hajmi oshib borishi bilan tuman markazidan ijaraga joy olib, faoliyatini kengaytirdi. "Nafosat-nafis" maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'iga asos soldi. Bu yerda zamonaviy tikuv mashinalari ishlab turibdi, 20 dan ortiq xotin-qiz bilan kasanachilik asosida ishlanyapti.



## KECHA "AYOLLAR DAFTARI" DA EDI, BUGUN ISH BERUVCHIGA AYLANDI



— Barchasi qunt va halol mehnatga bog'liq, — deydi Zilola. — Bugun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish juda muhim. Shu maqsadda Moskvadagi tikuvchilik korxonalarida malaka oshirib, ular bilan hamkorlikda ishlash yuzasidan kelishuvlarga erishdik. Shukur, olayotgan daromadimiz yomon emas. Hozir kuz-qish mavsumiga mos kiyimlar tikishni boshlaganmiz. Mijozlar buyurtmalari asosida boshqa kiyimlar, avtomobillar uchun to'shamalar tayyorlashni ham yo'lga qo'yganmiz. Ularning bir qismini xorijga sotamiz.

Aytishlaricha, bu yerda mehnat qilayotgan o'ndan ortiq ishchi-xizmatchi ijtimoiy daftarlarga kiritilganlardir. Ular dastlabki o'quv amaliyoti jarayonlarida hunar o'rganib, yetarli malaka va mahorat to'plab olganidan so'ng o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish

imkoniyatiga ega. Joriy yilning o'zida ushbu kichik ishlab chiqarish tarmog'ida malaka va mahorat oshirgan yuzdan ortiq xotin-qiz kasb sirlarini o'rganib, mustaqil faoliyat boshlagan.

Umidaxon Sayfutdinova "Yangi arab" mahalla fuqarolar yig'inidan. "Ayollar daftari"ga kiritilgan Umidaxon shu yerda ishlab, ish tajribasini oshirib kelmoqda. Bichish-tikish hadisini olgan tikuvchiga "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. U ishdan ajralmagan holda uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarib, qo'shimcha daromad olmoqda.

"Toshobod" mahalla fuqarolar yig'inida umrguzaronlik qilayotgan Umida Otajonova hayot sinovlarida toblangan, mehnat va izlanishdan qochmaydigan matonatli oila bekalaridan. Tirikchilik ilinjida bolalarini yolg'iz tashlab, bir necha yil musofirchilikning

achchiq non-tuzini tatib ko'rishga majbur bo'ldi. Topgani o'zidan ortmadi. Bir tomondan bolalar ulg'ayib kelmoqda. Ularga yaxshi odob, ta'lim-tarbiya berish mas'uliyati ota-ona halovatini oldi.

Umidaxon mehnat migranti sifatida "Ayollar daftari"ga kiritilib, tomoqasida gul ekanidagi issiqxonada qurish uchun 33 million so'm imtiyozli kredit ajratib berildi.

Tashqarida oltin kuzning izg'irin shamoli etni junjiktiradi. Xonadon tomoqasidagi issiqxonada esa yoz ifori hukmron. Rango-rang gullar iforidan ko'z quvnaidi, dil yayraydi.

— Bolaligidan qum parvarishlashni yaxshi ko'raman, — deydi Umidaxon. — Hozir kuz gullarini ekanmiz. Ular kuz-qish sovuq'ida ham ko'ngilga chiroy, fursunkorlik bag'ishlab turadi. Bahor mavsumida yuz turga yaqin gul ekib, sotuvga chiqaramiz. Mavsum

davomida o'ndan ortiq ishchiga ehtiyoj sezamiz. Ularning aksariyatini mahallamizdagi xotin-qizlar, yoshlar tashkil etadi. Ayni kunda faoliyat ko'lamimizni kengaytirish, Yevropa va Xitoydan yangi gul turlarini olib kelib, mahalliy lashtirish borasida ishlamaymiz.

O'z ishini ustasiga aylangan Umidaxon shu tariqa "Ayollar daftari"dan chiqdi. Mehnati orqali oilasi, mahalladoshlariga nafi tegayotganidan mamnun. Tuman markazida "Nihol" tabiiy gullar do'konini ochdi.

"Zilol" mahalla fuqarolar yig'inida yashab kelayotgan Gulchehra Umarova issiqxonada pomidor yig'ib-terish ishlari avjida. Avgust oyida ikkinchi ekin sifatida ekilgan ko'chatlar qiyy'os hosilga kiribdi.

— Erta bahorda ekilgan bodringdan 150 million so'mdan ortiq daromad oldik, kuzgi hosil cho'g'i ham chakki emas, — deydi Gulchehra opa qizim pomidorlarni ko'rsatib. — Muhimi, oilamizga qut-baraka, xotirjamlik kirdi. Kunlar iliy boshlasa, o'g'lim, qizim Rossiyaga ishlab ketardi. Ularni kuzatib, ming xavotirda yurak hovuchlab o'tirardim. Mana, ikki yildirki, yonimda, hamjihatlikda mehnat qilib, oila tebratmoqda. Uylar qurdik, to'y qildik, farzandlarimizni o'qiyapmiz, yangi mashina oldik. Halol mehnat orqali bir oila hayot tarzi uchun kerakli barcha narsalarga ega bo'ldik.

— "Ayollar daftari"ga kiritiladigan xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash bo'yicha xonadon-maxonadon yurish orqali 6602 xotin-qiz ro'yxati shakllantirilgan, — deydi Oltiariq tumani hokimi o'rinosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Hilola Otajonova. — Shu kunga qadar 5801 xotin-qizni doimiy va vaqtinchalik ishlarga jalb etish, kasb-hunarga o'qitish, mustaqil ravishda ishga joylash, o'zini o'zi band qilish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'riladi. Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan 430 xotin-qiz kasb-hunarga o'qitilib, mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchilari ko'magida kredit ajratildi, subsidiya asosida tikuv mashina hamda pishiriq pechi kabi kerakli ish qurollari bilan ta'minlandi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, "Biznesga birinchi qadam" mikroqarzi, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi va boshqa tijorat kreditlari, Sayxunobod tajribasi asosida xotin-qizlar bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarishga intilyapmiz. Umuman olganda, joriy yilning o'tgan davrida "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga qonunchilikda belgilangan tartibda moddiy, tibbiy, psixologik huquqiy yordamlar ko'rsatib kelinmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yurtimizning geografik joylashuvini hisobga olgan holda zamonaviy avtomobil yo'llari tarmog'ini bunyod etish va rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, transport salohiyatini hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omildir.

## ENG YAXSHI LOYIHALAR OLIS MANZILLARDAN BOSHLANMOQDA

Ayni vaqtda yurtimizning turli hududida qator xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda yo'l qurilish sohasida ko'plab yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholiga munosib hayot tarzi yaratish jarayonida ichki yo'llar holatini yaxshilash va ulardan sifatli foydalanish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, aholi, eng avvalo, qishloq joylarda yashovchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko'chalar hamda xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash borasida ahamiyatga molik farmon va qarorlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 18-maydagi "Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur qarorga asosan, o'tgan yili Surxondaryoda ham yo'llarga sement-beton qoplamasi yotqizish ko'zda tutilgan edi. Loyiha doirasida viloyatning 5 ta tumanidagi 18 mahallaning 28 ta ko'chasida sement-beton qoplamali yo'l qurilmoqda.

— Surxondaryo viloyati bo'yicha 170 kilometr masofada sement-beton qoplamasi yotqizish rejalashtirilgan. Shundan 70 kilometr "Obod qishloq" dasturi doirasida, 100 kilometr esa xalqaro loyihalar bo'yicha bajarilishi ko'zda tutilgan, — deydi "Dongsung injiniring" kompaniyasi mutaxassisi Husan Lolyev. —



Qumqo'rg'on, Oltinsoy, Denov tumanlarida 13 kilometr, Bandixonida 3 kilometr, Boysun tumanida 9 kilometr masofada sement-beton qoplamasi yotqizilmoqda.

Loyiha bosh pudratchisi etib Turkiyaning "Lankaran Yol Tikinti" MCHJ korxonasi belgilangan. Janubiy Koreyaning "Dongsung injiniring" kompaniyasi injener-konsultant sifatida faoliyat yuritayapti. Ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida tekzorklik bilan birga sifat nazoratiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

— Bu yo'llar har tomonlama, jumladan, geodezik tadqiq qilinib, so'ng barpo etilmoqda. Uning uzunligi, eni, asosi maxsus o'rganilib, ishlar muntazam nazorat ostida bajarilmoqda.

Zichlik, asos qatlamiga alohida ahamiyat qaratilmoqda, — deydi "Dongsung injiniring" kompaniyasi inspektori Malik Husanov.

Viloyatning Bandixon, Boysun, Denov, Qumqo'rg'on hamda Oltinsoy tumanlari hududidagi qariyb 53 kilometr uzunlikdagi ichki xo'jalik yo'lida sement-beton qoplamali yo'l yotqizilishiga 24 ta texnika hamda 50 dan ziyod ishchi-xodim jalb qilingan.

Oltinsoy tumani Xalqobod mahallasida 9 ta ko'cha bo'lib, shulardan Sa'diy Sheroyin ko'chasining 1500 metrdan ziyod qismiga sement-beton qoplamasi yotqizildi.

— Bu ko'chalar kuz, qish,

bahor oylarida loyga to'lardi. Yo'lsizlarga rahmat. Mahallamizdagi hamma ko'chalar tekislab bo'lindi, — deydi Oltinsoy tumanidagi "Xalqobod" MFY raisi Abdurahob Alimov. — Sifat juda yaxshi. Yo'lakchalar ham qurilyapti.

Surxon vohasining chekka tumani bo'lgan Oltinsoy infratuzilmasi so'nggi yillarda tubdan o'zgardi. Tumandagi qurilish va bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, ichki xo'jalik yo'llariga sement-beton qoplama yotqizilayotganidan aholi behad mamnun.

Yo'l infratuzilmasini yaxshilash borasidagi ishlar doirasida mahallaning ichki yo'llari ko'p yillardan buyon e'tibordan chetda qolgan bor gap. Hozir ushbu yo'llar ham ta'mirlanyapti.

Ularining qurilishida sifatni ta'minlash birinchi galdagi vazifa. Shu bois, to'liq mahalliy materiallardan foydalangan holda yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish ko'zda tutilgan. Qurilish materiallari va bajarilayotgan ishlar sifatini baholash jarayonida xorijiy standartlar qo'llanilmoqda.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish jarayonida qurilish-montaj ishlari bajarishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion materiallar ishlatilmoqda. Bu esa mahalliy mutaxassislarimiz ish bilan ta'minlanib, xalqaro tajribalarni o'rganishi uchun keng imkoniyat yaratayapti. Natijada ichki yo'llar holati yaxshilanmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bunyodkorlik

Mamlakatimizning deyarli har bir hududida tabiiy qazilma boyliklar mavjud. Ayniqsa, tog'li hududlarda katta zaxiralari borligi aniqlangan. Keyingi paytda foydalanilmayotgan ko'pgina tog' konlari auktsion orqali tadbirkorlarga sotilib, imkoniyatlar ishga solinmoqda. Buning natijasida qurilish sanoatida ishlab chiqarish hajmi ortmoqda. Shuningdek, import qilinayotgan ko'pgina mahsulotlar o'rni qoplanishiga erishilmoqda. Jumladan, bu borada Chiroqchi tumanida ham qator ijobiy ko'rsatkichlar ko'zga tashlanayotir.

## Yangicha yondashuvlar



## ODDIY QUMDAN EKSPORTBOP MAHSULOT

Qumdaryo Chiroqchi tumanining yuqori tog'li manzilidan boshlanib, adog'i cho'l hududiga qadar oqib boradi. Unda suv asosan, seryog'in paytlarda bo'ladi. O'z nomiga mos bo'lgan Qumdaryo o'zani tog'u toshlardan suv yuvib tushgan qum zarra-sa to'lib turadi. Bu asosan, qurilish uchun eng kerakli bo'lgan kvartsdir. Manbalarga ko'ra, kvarts turlari tog' jinslarining asosiy tarkibiy qismi. Kvars qumi keramika va shisha sanoatida, monokristalli optika va radiotexnikada, shaffof va chiroyli rangli yarim qimmatbaho tosh sifatida zargarlikda ishlatiladi.

Bugun Chiroqchi tumanida tadbirkor Abdulaziz Xoliqulov tashabbusi bilan ushbu tabiiy boylikni qayta ishlab, qurilish sanoati korxonalariga yarim va tayyor kvars qumi yetkazib berish yo'lga qo'yilgan. Dastlab faoliyatini 2014-yilda boshlagan tadbirkor "Chiroqchi dala sapatli kvars" nomli xususiy korxonaga ochgandi. Lekin yetarli darajada texnologiyasi bo'lmagan bo'lsa, mahalliy bozorda o'z o'rini topishga qiynaldi. Shunday bo'lsa-da, hech qachon ortga chekinmadi. Bugun esa ishlabarmon doira vakillariga yaratilayotgan qulayliklar tufayli sohada yetakchi korxonalardan biriga aylandi.

Birinchi bor shu yo'nalishda ish boshlaganida ko'pchilik e'tiroz bildirgandi, — deydi Abdulaziz Xoliqulov. — Oddiy qumi qayta ishlab, biror foyda olish mumkinligiga shubha bilan qaragandi. Tabiat bizga in'om etgan qanchadan-qancha boyliklardan foydalana olmaymiz. Avvaliga Qumdaryodan kvars qumini olib, ancha izlanishlar o'tkazganman. Sohaning tajribali mutaxassislari maslahatini oldim. Tizimda faoliyat yuritayotgan

ishlabarmonlarning loyihalari bilan tanishdim. Izlanishlarim natijasida qum qayta ishlansa, xaridori, albatta, topilishi ma'lum bo'ladi. Bozorda bunga talab yuqori. Bundan tashqari, vohamizda bu yo'nalishda raqobatchi ham yo'q. Shu bois, tavakkal bo'lsa-da, ishini boshlagandim. Dastlab daryodan qum qazib chiqarish uchun tegishli ruxsatnoma oldim. Shundan so'ng qumi saralab, qayta ishlaydigan uskunalar xarid qildik. Birinchi yili ishimiz ancha yaxshi bo'ldi. Xaridorlarimiz safi kengaydi. Ammo keyinchalik buyurtmachilar ortishi natijasida mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazishga qiynalib qoldik. Boisi, uskunalarimiz kam quvvatli bo'lib, juda ko'p vaqt yo'qotilardi. Bu esa ayrim muammolarni keltirib chiqarardi. Uskunaning kattaroq quvvatda ishlaydiganini sotib olishga kuchimiz yetmasdi. 2019-yilga kelib, davlatimiz biz kabi tadbirkorlarga katta imkoniyat berdi. Prezidentimizning 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida keyin ishimiz olg'a siljiy boshladi.

Qarorda tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mahalliy mineral xomashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalar va qurilish materiallarini eksportga yo'naltirish hajmini oshirish ko'zda tutilgan edi. Shu yili Abdulaziz Xoliqulov 192 ming dollar imtiyozli kredit olib, Xitoydan kvars qumini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalarni xarid qildi. Bu esa imkoniyatini kengaytirib, ishlab chiqarish quvvatini oshirishga zamin yaratdi.

— Oldinlari eski uskunamiz bilan yiliga 10 ming tonna qumni qayta ishlagan bo'lsak,

yangisida bu ko'rsatkich 50 ming tonnaga yetkazildi, — deydi tadbirkor. — Bundan tashqari, korxonamizda avval 13 kishi mehnat qilgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi ortishi evaziga yana 24 kishining bandligi ta'minlandi. Shu bilan birga, oldin faqat yarim tayyor mahsulotni sotib kelgan bo'lsak, keyinchalik tayyorini ham hamkorlarimizga yetkazib bera boshladik. Hatto xorijlik hamkorlarimizdan buyurtmalar qabul qilyapmiz. Mahsulotlarimizni Qozog'iston, Tojikiston, Turkmanistonga sotaymiz. Shuningdek, Toshkent viloyati va boshqa hududlardagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda suvni qayta ishlovchi muassasalarga kvars qumini yetkazib beryapmiz.

Chiroqchi tumani hokimi o'rinosari Toir Sattorovning ta'kidlashicha, bugunga qadar tumanida 7 ta kon aniqlangan. Hozir ushbu konlar 9 ta hududga bo'lingan bo'lib,

6 tasi tadbirkorlar tomonidan o'zlashtirilmoqda. Bularda kremniy, kvars, g'isht, qurilish toshi va ohak, qum-shag'al materiallari xomashyosi ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, qolgan konlarni o'zlashtirish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Xorijlik investorlarning qiziqishlari o'rganilmoqda. Yaqinda rossiyalik investor tashabbusi bilan hududdagi yana bir yangi konda loyiha amalga oshirilishi borasida kelishuvga erishildi. Bu esa tumanida bo'sh turgan foydali qazilmalarni ishlatish bilan birga, aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





# KUNDUZGI STATSIONAR

## BEMORNING HAM VAQTINI, HAM NAQDINI TEJAYDI

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shu yil 20-noyabrda yig'ilishida yana bir bor sog'liqni saqlash, ta'lim va sportni rivojlantirish masalasiga to'xtaldi. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha katta dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirish hamisha hukumatning kun tartibida turishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar ekanini ta'kidladi.



Salomatlik

Jumladan, o'rta umr ko'rish ko'rsatkichini 78 yoshga yetkazish uchun birlamchi tibbiy xizmatlarning aholi uchun qulayligi va sifatini oshirish zarurligiga urg'u berildi. 2025-yilda birlamchi bo'g'inda 3 million 700 ming ayolni skrining tekshiruvidan o'tkazish, bu jarayonni raqamlashtirish orqali saraton kasalligini erta aniqlash ko'rsatkichini hozirgi 60 foizdan 85 foizga yetkazish mumkin. Hukumat mahallalardagi 18 mingta tibbiyot brigadasini o'qitish, 884 ming bemorni uy sharoitida

reabilitatsiya bilan qamrab olish bo'yicha yangi tizim joriy etadi. Shu bilan birga, tug'uruqxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga 100 million dollar yo'naltiriladi. Har bir fuqaroning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, aholi salomatligini mustahkamlash va umr davomiyligini oshirishga bunday e'tibor inson qadri hamma narsadan ustun bo'lishi kerak degan tamoyilning mantiqiy davomidir.

## Endi davolanish uchun UZOQQA BORISHGA ZARURAT YO'Q

Davr shiddatli: ko'z ochib yumguncha tong otib, kun botadi. Tezkor vaqt insonning turmush tarziga ham ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. O'qish, ish, uy yumushlari, bolalar tarbiyasi... Barchasiga ulgurish kerak. Go'yo kasal bo'lish mumkin emas yoki vaqt yo'qdek. Ammo betoblik so'rab o'tirmaydi. Kutilmagan paytda og'rib qolish, davolanishga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Bunday paytda shifoxonada yotib muolaja olish vaqt va mablag' talab qiladi. Bunga imkon bo'lsa, ko'p-xo'p, bo'lmasa, kasallik oyoq uchida o'tkaziladi, asoratlarini qoldirib, surunkali tus oladi. Keyinchalik yo'qotilgan sog'liq o'rini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.

oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinika va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda stasionar tibbiy xizmatlar kunduzi soat 13:00 ga qadar ko'rsatiladi, birlamchi bo'g'in muassasalaridagi kunduzgi shifoxonalardan yetarlicha foydalanilmas edi. Ba'zi oilaviy poliklinikalarda kunduzgi stasionar uchun xona yetishmasa, boshqalarida turli sabablar bilan shifo o'rnlari tashkil etilmagan.



Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotiga ko'ra, bugunga kelib, mamlakatimizdagi oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinika va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalardagi kunduzgi stasionarlarda 19,3 mingta kunduzgi shifo o'rni

tashkil etilgan. Bunda imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oilaviy shifokor punktlarida 6 tagacha, oilaviy va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda 20 tagacha kunduzgi shifo o'rnlari mavjud. Ularda ishlaydigan tibbiyot xodimlari ish haqiqi qo'shimcha ustama to'lanishi yo'lga qo'yildi.

Qolaversa, xuddi shu yangi tizim orqali 558 ming bemorga oilasidan ajralmagan holda davolanish imkoniyati yaratildi. Natijada shifoxonalarga murojaat 19,1 foiz kamaydi. — Bugun Toshkent shahrida 72 ta oilaviy va 12 ta tuman markaziy ko'p tarmoqli poliklinika faoliyati yo'lga qo'yilgan, — deydi Olmazor tumani tibbiyot birlashmasi rahbari Aziz Nizomov. — Ularning barchasida kunduzgi shifoxona tashkil etilgan. Jumladan, Olmazor tumani 9 ta oilaviy, bitta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, bundan tashqari, talabalar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Tumandagi 15 oilaviy poliklinika va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada 20 tadan shifo o'rni tashkil etilgan. Ular ikki navbat faoliyat yuritadi. Demak, 40 ta shifo o'rni aholiga xizmat qiladi. Qolgan oilaviy poliklinikalardagi 10 ta shifo o'rni 2 smenada ishlashini inobatga olsak, 20 ta o'rini tashkil etadi. Bitta kuyokda to'rt bemor davolanishi mumkin. Bu muassasalarda davolanish uchun o'tkir, surunkali kasalliklar remissiyasi yoki subremissiyasi davridagi, reabilitatsiya va sog'lomlashtirish muolajalariga muhtoj bemorlarga oila shifokori yoki tor soha mutaxassisi yo'llanmasi zarur. Ular oilaviy shifokor ko'rsatmasiga asosan, muolaja olgach, bemol uyiga qaytib ketishi, bo'shagan shifo o'rniga esa navbatdagi kishi yotqizilishi mumkin.

## Deyarli barcha muolaja BIR JOYDA MUJASSAM



Kunduzgi shifoxonaning afzalliklari nimalardan iborat? Eng avvalo, qulaylik. Kunduzgi stasionarlari faoliyati soat 20:00 gacha uzaytirilgan ish, uy yumushlaridan ortib salomatligiga e'tibor qaratilmayotgan yurtdoshlarimiz uchun ayni muddao bo'ldi. Bu ertalab ishga ketgunga qadar yoki kechi soatlarda, ish vaqtidan keyin muolaja olish imkonini bermog'da. Barcha oilaviy poliklinikalarda kunduzgi shifoxonalar bilan fizioterapiya bo'limlari yonma-yon joylashgan. Bemor fizioterapiya, infuzion terapiya, reabilitatsiya muolajalari kabi tibbiy xizmatlardan foydalanishi mumkin. Rentgen, ultratovush diagnostikasi kabi tekshiruvlar ham poliklinikada o'tkaziladi. Deyarli hamma

muolaja bir joyda mujassam. Qolaversa, bemorlarga kafolatlangan paket doirasida dori-darmon bepul taqdim etiladi.

— Kunduzgi stasionar, ayniqsa, ayollar uchun ayni muddao bo'ldi, — deydi Olmazor tumani Tepaguzar mahallasida yashovchi Shahnoza Rustamova. — Bolalarim hali yosh, ularni uyda qoldirib, o'zim shifoxonada yotolmayman. Tumanimizdagi 63-oilaviy poliklinikaga biriktirilganmiz. Shu yerda kunduzgi shifoxonada muolaja olishga qaror qildim. Avvaliga oilaviy shifokorga uchrardim. Zarur tekshiruvlardan o'tganimdan so'ng kunduzgi shifoxonaga yo'llanma berildi. Bu yerda sharoit yetarli, xonalar issiq. Hamshiralar shirinso'z, o'z ishini vijdonan bajaradi. Yaratilgan sharoitlardan minnatdorman.

Vazira aya Asomova Yuqori Sebzor mahallasida yashaydi. Ancha yildan buyon uni qon bosimi oshishi bezovta qiladi. Shifokor nazoratida bo'lib turishi, tez-tez davolanishi kerak. Olmazor tumani ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasining kunduzgi shifoxonasi ayaning joniga ora kirdi. — Yuragim og'riydi, qon bosimim muntazam oshadi, — deydi Vazira Asomova. — Xususiy klinikada davolanmoqchi bo'lib narxini surishtirsam, kamida 7 million so'm, deyishdi. Imkonim yetmasdi. Oilaviy shifokor poliklinikasining o'zida shu muolajani olishim mumkinligini aytganida nihoyatda xursand bo'ldim. Endi uzoq joyga borishimiz, shifokor izlashimiz shart emas. Shu yerning o'zida muolaja qilinayapti. Yotoq o'rni, shifokor ko'rsatmasi, dori-darmon bepul. Hammayoq ozoda. Eng muhimi, sog'lig'im bilan bog'liq muammoga mahallada davo topyaplik

Eshikma-eshik shifokor izlab yurmayman. Bu yerda qo'li yengil mutaxassislar ishlayapti, baraka topsin. Muolajalarni kunduzgi shifoxonada olaman-u, uyga kirib ketaveraman.

Ambulator va stasionar tibbiy xizmatni o'zida jamlagan kunduzgi shifoxonalar aholi daridga darmon bo'lishi barobarida bemorlarning vaqti va mablag'ini tejab, tunu kun sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatadigan o'ziga xos kichik shifoxona bo'lmoqda. — Yunusobod tumandagi har bir oilaviy poliklinikada kunduzgi shifoxona tashkil etilgan, aholi qulay vaqtida muolaja olishi uchun barcha sharoit yaratilgan, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Shaira Abdusattorova. — Joriy yilning o'tgan 9 oyida 8754 fuqaro kunduzgi stasionarda davolandi. Bemorlar 121 turdagi dori-darmon bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, elektron rezept orqali reimpursiyasi dasturi doirasida jami 5 turdagi kasallikka chalinganlarga 11 xil dori berilgan. Kunduzgi stasionarda muolaja olayotgan bemorlar shifokor va hamshiraning doimiy nazoratida bo'ladi. Bu aholi uchun yaratilgan katta qulaylik va e'tibor.

Qosh qoraya boshladi. Soat millari 20:00 ga yaqinlashmoqda. Oilaviy poliklinikaning kunduzgi stasionari eshigi esa hamon ochiq. Bu yerda ishdan, o'qishdan, turli yumushlardan ortib, salomatligiga bee'tibor bo'lmagan har bir yurtdoshimiz kelishi mumkin. Toki davo istagan so'nggi bemorga xizmat ko'rsatilmaguncha shifokor ham, hamshira ham oq xalatin yechishga shoshilmaydi. Zero, inson salomatligi hamma narsadan ustun. Uning sog'lig'ini tiklash, yashash huquqini ta'minlash tibbiyot xodimlarining eng oliy burchi.

Islahot odimlari

## "INSON" IJTIMOYIY XIZMATLAR MARKAZLARI

## UMID VA ISHONCH MASKANI



Kam ta'minlangan, o'zgarlar ko'magiga muhtoj va yolg'iz keksalar holidan xabar olish, ularga har tomonlama yordam ko'rsatish xalqimizga xos an'analardan. E'tiborlisi, ushbu ezgu odat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgani, viloyatlarda agentlik boshqarmalari, tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgani fikrimiz tasdiq'idir.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-sentabrdagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko'rsatish, aholining og'ir ahvolda tushib qolishining oldini olish, shuningdek, ijtimoiy himoyaning manzilligini va samaradorligini oshirish hamda aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash nazarda tutilgan.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida bugun mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ular uyma-uy yurib, ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar, nogironligi bo'lganlar, beva-bechora, qarovchisi yo'q, ota-onasidan erta mahrumlar yoki ota-ona qaromog'idan chetda qolganlarni xatlovdan o'tkazib, yordam bermoqda.

Asli ukrainalik Tatyana Ponomarenko 1971-yili yo'llanma orqali ishlash uchun G'allaorol tumani Marjonbuluq shaharchasidagi Marjonbuluq oltin boyitish koniga keladi. Konda 25 yil katta nazoratchi vazifasida mehnat qiladi. Samarali faoliyati uchun korxonaga uyga Marjonbuluq

samiy, mehribon. To'g'ri, besh barmoq barobar bo'lmaganidek, vasiyimek odamlar ham uchrab turadi. Undan ham xafa emasman. Mustaqillikkacha Ukrainadagi qarindoshlarim bilan xat yoki telefon orqali gaplashib turardik. Ular bir necha bor meni chaqirdi, olib ketmoqchi ham bo'ldi. Ammo o'zim ko'nmadim. Boya aytganidek, bu yerda mehroq'ydin. Yaqinlarimni tez-tez eslayman... Televizor orqali har kuni axborot dasturlarini ko'rib boraman. Mamlakatimizda Prezidentimiz inson qadriini ulug'ladi. Buni mening misolimda ham ko'rish mumkin. Mahallamizga biriktirilgan ijtimoiy xodim uyimga kelib, ro'yxatga oldi. E'tiborsiz vasiyimni sud orqali vasiylikdan mahrum etdi. Meni boshqatdan davlat qaramog'iga o'tkazishdi. Tuman tibbiyot birlashmasida bepul davolanib chiqdim. Menga qaraydigan alohida xodim ajratildi. U har kuni kelib, holimdan xabar oladi, issiq ovqat pishirib beradi, uyimni tozalaydi, kirimini yuvadi. Hozir yolg'izligimni his qilmayman. Mana shunday sharoit yaratgan Prezidentimizga va men kabi muhtojlarga mehroq'ydin qarayotgan xodimlarga minnatdorlik bildiraman.

— Ijtimoiy xodimlar yanvar-sentabr oylarida og'ir vaziyatga tushgan va og'ir

uyda turgan holda buyurtma berishi mumkin. Tegishli ilovasi orqali yashash xonadoniga yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yildi. 1-oktabr holatiga ko'ra, vaucher tizimi asosida nogironligi bo'lgan 394 shaxsga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya texnik vositalari yetkazib berildi.

Arnasoy tumanining G'afur G'ulom mahallasida istiqomat qilayotgan 1977-yilda tug'ilgan Umida Azizova mahalladagi kompleks xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodim tomonidan xatlov o'tkazilganida o'zgarlar parvarishiga muhtojligi aniqlangan hamda reyestriga kiritilib, unga ijtimoiy xodim assistenti biriktirib berilgan.

Bundan tashqari, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi orqali davolanish uchun shartnoma asosida muhtoj mablag' ajratilgan. — 2015-yili avtomobilida avariya uchrab, nogiron bo'ldim. O'shandan beri o'zgarlar parvarishiga muhtoj edim, — deydi Umida Azizova. — Xalqparvar davlatimizga rahmat, sharoitimni o'rganib, o'zim uchun ijtimoiy xodim assistenti biriktirib berdi. U ham menga har tomonlama yordam beradi, beminat xizmat qilmoqda. Vaznim ancha og'ir, yurish-turishga qiyin. Ovqat qiladi, kirilarimni yuvadi, o'zimni yuvitiradi, gaplashib o'tiramiz. Natijada hayotga, yashashga ishtiyogim ortmoqda.

Nafaqat nogironlar yoki yolg'iz keksalar, balki adashib jinoyat ko'chasiga kirgan shaxslar ham ijtimoiy xodimlar nazaridan chetda emas. Sharof Rashidov tumani "Eski toshkentlik" MFYda yashovchi 21 yoshli Abbas Musurmonov ham yoshlik qilibmi, bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qoladi. Jinoyatiga yarasha jazo tayinlanadi. Qilmishidan chin pushaymonligi uchun davlatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan e'lon qilingan afv tufayli qamoqdan muddatidan oldin ozod etildi. Uyiga qaytgach, Abbosning ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida mahalladagi ijtimoiy xodim tashabbusi hamda "mahalla yettligi"ning boshqa a'zolari qo'llab-quvvatvoti bilan 700 million so'm imtiyozli kredit olib berildi. Ayni kunda imtiyozli tadbirkor sifatida uyda zamonaviy mebel ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan.

— Avvalo, men kabi yuzlab adashganlarni afv etgan uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman, — deydi Abbas Musurmonov. — Mahallamiz ijtimoiy xodimi maslahati va boshqa mahalla vakillarining qo'llab-quvvatlashi bilan menga bankdan imtiyozli kredit olib berildi. Bu pulga aka-ukalarim sherikligida uyda mebel ishlab chiqarish sexi ochdik. Ayni paytda buyurtma asosida turli mebellar ishlab chiqaryapmiz. Daromadimiz ham shunga yarasha. Hamma yomonlik bekorchilikdan yuzaga kelarkan. Bunga shaxsiy hayotim misol bo'la oladi. Mana shunday tartibni joriy etib, odamlarni ishli, daromadli qilayotgan davlatimizga rahmat.

— Kuzatvlarimiz natijasida hali ko'pchilik yurtdoshimiz mahallalardagi ijtimoiy xodimning asosiy vazifalarini bilmasligi ayon bo'ldi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi axborot xizmati rahbari Bahrom Tog'ayev. — Shu sababli Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan qilinayotgan ishlarni keng jamoatchilikka, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga xalqchil tilda tushuntirish maqsadida Jizzax shahrida dastlabki kouching tashkil etdik. Unda fuqarolarga kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi tayinlanishi va to'lanish tartibi, elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish minimal me'yordan ortiqcha iste'mol xarajatiga kompensatsiya to'lab berilishi, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan beriladigan yordam va ko'rsatiladigan xizmatlar yuzasidan tushunchalar berildi.

Bugun joylardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari chin ma'noda muhtoj insonlarning umid va ishonch maskaniga aylannoqda. Albatta, bunday xayrli ishlarning bajarilishi yurtdoshlarimiz inson qadri yuksalib, barcha islohotlarimiz zamirida "insonni qadrlash" degan oljanob maqsad mujassamligining yana bir isbotidir.

Farhod NE'MATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



shaharchasidan ikki xonali uy beradi. Ayni paytda 75 yoshga kirgan Tatyana momo yolg'iz yashaydi. Keksaligi sabab unga tuman hokimligi tomonidan vasiy tayinlangan. Biroq vasiylik qiluvchi kerakli majburiyatlarini bajarmagan.

— Xatlov jarayonida yolg'iz keksa yashayotganidan xabar topdim, — deydi Marjonbuluq mahallasidagi ijtimoiy xodim Nodira Jonzoqova — O'rganishni natijasida tayinlangan vasiy majburiyatlarini muttasil bajarmagani, keksaga qaramagani, nafaqasini ham momoga ishlamagan, muntazam ustidan qulflab, qo'shmlar bilan muloqotini cheklab qo'ygani aniqlandi. Bu ma'lumotlarni zudlik bilan tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga yetkazdim.

Shundan so'ng G'allaorol tumani "Inson" ijtimoiy markazi tomonidan ishchi guruhi tuziladi. Ishchi guruhi o'rganishi natijasida vasiyning o'zgarlar parvarishiga muhtoj keksa oldidagi vasiylik majburiyatlarini bajarmagani aniqlandi va vasiylik qarorini bekor qilish bo'yicha tuman hokimligiga taqdimnoma kiritildi. Tuman hokimining qarori asosida vasiy o'z majburiyatlaridan ozod qilindi. Ammo sobiq vasiy tuman hokimining vasiylikni cheklash bo'yicha qarorini bekor qilishni so'rab sudga shikoyat arizasi kiritdi. Sud muhokamasida tuman "Inson" ijtimoiy markazi uchinchi shaxs sifatida qatnashib, bu borada fikrlarini bayon etdi. Sudning yakuniy qaroriga asosan, vasiyning arizasi qanoatlantirilmay qoldirildi. Natijada yolg'iz yashovchi keksaning ijtimoiy huquqlari tiklandi va davlat kafolatlagan ijtimoiy xizmat va yordamlardan foydalanishi ta'minlandi.

Ayni paytda qariyaga ijtimoiy xodim biriktirilgan. Barcha kerakli yordam ko'rsatilmoqda. Muntazam issiq ovqat yetkazib berilyapti. — O'zbekistonda tug'ilgan bo'lmagan bo'lmagan ham umrimning asosiy qismi shu yerda o'tdi. Bu yerni tug'ilgan vatanimdan ham ortiq yaxshi ko'raman, — deydi Tatyana Ponomarenko. — Mehr qo'ydim. Odamlari



vaziyatga tushish ehtimoli yuqori bo'lgan oilalarni "keys menagement" asosida o'rgandi. Natijada viloyatimiz bo'yicha 5657 ta keys ochildi va uning asosida xizmatlar ko'rsatilmog'da, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i Nargiza Mavlonova. — Viloyatda ayni paytda o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yakka-yolg'iz hamda yolg'iz

yashaydigan keksa va nogironligi bo'lgan 423 kishi mavjud. Ularga 53 ijtimoiy xodim assistenti xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga, o'zgarlar parvarishiga muhtoj fuqarolar bilan tuzilgan shartnomalar asosida pulli xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Bugungacha qadar tuzilgan 414 ta shartnomaga asosan, pulli xizmat ko'rsatilmoqda. Viloyatda 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, nogironligi bo'lgan 43 ming 541 nafar shaxs bor. Joriy yilda ularning 1844 nafari protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlandi. Shu bilan birga, 2024-yil 1-avgustdan boshlab muhtoj shaxslar protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya texnik vositalarini elektron vaucher orqali



Ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat emas. Farzand tarbiyasida muhim qoidalardan biri bolani yoshligidan jamiyat orasida o'zini chiroyli tutish, barchaga barobar samimiy, kamtarin bo'lish kabi odoblarga o'rgatishdir.

## Toshoyna

**Boshqacha bo'lishi mumkin yoxud boylar ham yig'laydi**

Odatda boy va kambag'al tushunchasiga moddiy orqali nisbat beriladi. Puli ko'p odam — boy, ozi — kambag'al. Bizga puli ko'p odamning muammodan boshqa hamma narsasi bor, kambag'alning muammodan boshqa hech narsasi yo'q bo'lib tuyuladi. Go'yoki boshqacha bo'lishi mumkin emas!

Odamlarda boy va kambag'allik mezonlari turlicha. Xalqimizda bir naql bor: "Puli ko'p inson boy emas, nafi to'q inson boydir". Kimdir qorni to'yib ovqatlanmagan yoki mebel, avtomobil sotib olganiga qanoat qiladi, o'zini boylar qatoriga qo'shadi. Boshqasi qo'sha-qo'sha uy-joy, muqim daromadga ega bo'lsa-da, kambag'alligi va yetishmovchilikdan noliydi.

Xalqaro matbuotda dunyoda boylar va kambag'allar o'rtasida tafovut oshib borayotgani mavzusi ko'p yozilmoqda. Keltirilishicha, jahondagi 26 ta boy insonning daromadi dunyo aholisi yarmining daromadidan ortiqdir. So'nggi yillar mobaynida boylar yanada boyidi va qashshoqlar undan-da qashshoqlashdi.

"Boy bo'lib tug'ilmaydilar, boy bo'lib yetishadilar", degan gap ham bor. Bu yerda asosiy gap "yetishish"da. Bu harakatlanish, takomillashish demakdir. Ishni maosh olish uchun bajarish odamni boy qilmaydi. Ishni sevib, sidiqildan bajargan kishiga daromad o'zi keladi. Boylikka erishish uchun oldiga maqsad qo'yish va harakat qilish, o'qib-o'rganish, sarmoyani to'plam, ishga solish, ruhi charxlash, fikrni komillashtirish, tafakkurni yangilash talab etiladi.

Sobiq ittifoq mafkurasi sovet xalqi shuuriga boylarni zolim, ovsar, ma'naviyatsiz kishilar, kambag'allarni esa mazlum, oqil va qahramon sifatida singdirishni uddalagandi (afsuski, hamon jamiyatimizda bu asorat o'zining ayrim unsurlarini saqlab turibdi). Boshqacha aytganda, hukumat 1917-yil oktabr inqilobi (to'ntarishi)ning bosh g'oyasi — "Yo'qolsin boylar, yashasin kambag'allar!" da'vatini hayotga tatbiq qila oldi. Uzoq yillar mobaynida boylarsiz kambag'allar (kambag'allik) gullab-yashagan davlat dunyo siyosiy xaritasini "bezab" keldi.

Natijada ne-ne xalqlarning boylari — xalq koriga yarayotgan tadbirkorlar, ilg'or fikrli ishbilanmonlar, ziyoli ijodkorlar, siyosiy boshqaruvning elita vakillari jismonan badnom etilib, boylilari talon-toroj qilindi, oila a'zolari ko'chaga quvildi, boshpanasiz qoldirildi. Bu esa yoppasiga qashshoqlik va ma'naviy tanazzulga olib keldi, ko'plab xalq va millat vakillari qiynaldi, oyoqqa turib olish murakkab va uzoq kechdi.

Har qanday zamonda ham yashash uchun harakat qilish kerak. Har holda harakat qilib boylar ham, boyimaslik ham mumkin, ammo harakat qilmasdan boylar ilojisizdir. Bugun moddiy va ma'naviy boylar va kambag'allar ma'naviyati haqida muxtasar fikr yuritmoqchimiz. Demak, avvalo, moddiyat haqida...

### Qo'lining kiri yoxud tuxum berayotgan tovuqni so'ymaydilar

Hozir mamlakatimizda boshqa muammolar qatori qashshoqlikka ham barham berishga qaratilgan islohotlar kechmoqda. Joriy yil 11-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmasligi, buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim ekaniga e'tibor qaratilib, mavjud vaziyat tahlil qilindi. Bu maqsad juda keng ko'lamli ekanini, unga barcha hissa qo'shishi kerakligi ta'kidlandi.

"Bundan buyon kambag'allikni qisqartirish umumilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo'g'indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag'allikdan olib chiqish bo'lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so'rov ham qattiq bo'ladi" dedi davlatimiz rahbari.

"Tirishmoq rizq eshigining kalitidir", degan ekan mavlono Rumi. Boqsangiz, aksariyat boy insonlarda ana shu fazilatni ko'rsiz. Bir-ikki merosxo'rni inobatga olmasa,



**Nodir MAHMUDOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

o'ziga to'qlikning zamirida tinimsiz mehnat, mashaqqat, maqsad sari intilish, tirishqoqlik jo. Nima uchun kimdir qo'lga katta mablag' tushib qolsa, bir-ikki kunda sovurib yuboradi? Boshqa biron esa o'sha pulni biror ishga tikib ko'paytiradi? Hamma gap pulga munosabat! Deyl Karnegi "Boy bo'lishni istagan odam pulga oqilona munosabatda bo'lishi shart. Bu uni boshqalarga qaram qilmaydi. G'oliblar bilishadiki, insonni pul emas, undan oqilona foydalanish baxtli qila oladi. Pul ham shunga loyiq insonlarning qo'lga borib tushadi", degan edi.

Ko'hna rivoyatda keltirilishicha, qadimda qashshoqlikda arang kun kechiradigan bir kishining bisotidagi bitta-yu bitta tovuq'i qo'qqisidan tilla tuxum tug'ibdi. U avvaliga biron hazillashgan deb o'ylabdi. Lekin har ehtimolga qarshi tuxumni zargar huzuriga eltibdi. Zargar tuxum asl tildan ekanini tasdiqlabdi va katta pul evaziga sotib olibdi.

O'sha kuni kechqurun kambag'al kishi katta bazm uyushtiribdi. Ertasiga katakka yo'l olsa,

tovuq yana bitta tilla tuxum bosib yotibdi. Bu holat bir necha kun davom etibdi. Keyin esa nafi hakalak otibdi. Kuniga bitta tilla tuxum kamlik qila boshlabdi. U tovuqni so'yib, hamma tuxumga birdan egalik qilmoqchi bo'libdi. Biroq tovuq tanasidan no'xatdek keladigan, hali homila holatidagi tuxumga duch kelibdi, xolos. Qissadan hissa: tuxum berayotgan tovuqni so'yaslik kerak.

Boyib ketish — huquq! Hali hech qachon boylar bizing zamonamizdagidek oson bo'lmagan. "Unda nega hamma inson boy emas?" degan savolning javobi juda oddiy: insonlarning ko'pchiligi tilla tuxum qo'yayotgan tovuqni so'yib yuboradi.

Pul — qo'lining kiri, deyishadi. Afsuski, qo'llarimiz top-toza, deguvchilar ham bor. Pul hayotdagi eng muhim narsa emas. U faqat qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi. Inson boyigani sari atrofidagilar oldida mas'uliyati shunchalik ortib boraveradi.

Azaldan boylar haqida gap ketganda, boylarning puli ko'plari emas, balki ular orasida saxovatlilari, ya'ni ehtiyojmand odamlarga qiladigan muruvvatlari, xayr-ehson, sadaqai joriyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki qadriyatimizda saxiylik eng yaxshi insoniy xulqlardan sanalib kelgan. Shukrki, davrimizda ham ana shunday olijanob boylar bor. Saxovat sohiblarining sa'y-harakati bilan qanchadan

**Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma'naviyatdir.**  
**Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

# MODDIY VA MA'NAVYIY BOYLK

## QAY BIRI BIRLAMCHI?

qancha ko'ngillar shod, g'amlar barbod, buning samarasi esa boylikka boylk qo'shilishida namoyon.

"Bizning pullarimiz hech qachon to'laligicha bizga tegishli bo'lmagan. Agar yaqinlarimizning muhtojligidan yuz o'girar ekanimiz, hech qachon to'la-to'kis baxtli bo'la olmaymiz. Biz butunning bir qismimiz, shu sababli atrofimizdagilardan minnator bo'lishimiz, ular bilan bo'lishib, minnatdorligimizni namoyish qilishimiz kerak".

Bu iqtibosni bir kitobda o'qigan edim. Kelib chiqadiki, kishi moddiy boyligini ma'naviy boyligi to'laqonli bo'lishiga xizmat qildiradi olishi matonat va maqsadga muvofiqdir. Demak, boshqa boylklar haqida...

Masalan, juda ko'p yaqinlarim, do'stlarim, tanishlarim e'tirof etishicha, men judayam boyman. E'tirof esa quyidagicha yangraydi: "Boshingda ota-onang bor. Sen juda boysan". Darhaqiqat, yoshim ellikdan oshdi. Men tengilarning aksariyati yo otasi, yo onasidan ayrilgan, ayrimlari har ikki suyanchig'ini yo'qotgan. Umrlari uzoq bo'lsin, duogo'yalarim yonimda, ularning bag'ridaman. Bu ulkan va tengsiz boyligimga ko'z tegmasin deb avaylayman, Yaratgandan ularga uzoq umr, sog'liq tilayman. Boshqa har qanday moddiy boylk, omad, tan-jonim salomatligi, oiladagi xotirjamlik va balo-qazolardan uzoqda bo'lish ularning duolari bilan ekanini anglayman.

Ulug'lar aytadi, inson jismini ikki narsa ko'tarib turadi. Biri ruhiy, ikkinchisi jismoniy quvvat. Tasavvur qiling, bola yoshligidan jismoniy mashqlar qilib, yengil toshlarni ko'tarib, bora-bora katta og'ir toshlarni ko'taradigan polvonga aylanadi. Endi o'z vaznidan bir necha barobar og'ir toshlarni

ko'taradigan, kurashda yengilmaydigan haqiqiy pahlavon bo'ladi. Shunday jismoniy kuchga ega bo'lgan inson ma'naviy tarbiya ko'rmasdan bo'lsa, xulq-odob, ota-ona hurmati, rahm-shafqat, or-nomus, halollik, farzandlik burchi, insonparvarlik, va'daga vafo, solihlik nimaligini bilmay o'tib ketadi.

Insonning kamolotga erishishi, vatan va jamiyatga keltiradigan foyda yoki zarari uning ruhiy tarbiyasi hosilasidan kelib chiqadi. Ruhiy holat, ruhiy tarbiya kishining ma'naviy tarbiyasiga bog'liq. Ma'naviyatimiz asoslari, shubhasiz, boy. Imonsiz, e'tiqodsiz bo'lsa, o'g'irlkning, talonchilikning, fahshning, shafqatsizlikning gunohligini bilmasa, halol-haromning farqiga bormasa, sharm-hayosi bo'lmasa, unday odamni komil inson deb bilmaymiz. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, diniy bag'rikengligimiz ham ma'naviy boylkdir. Demak, ma'naviy boylkning asosi, poydevori — odob, tarbiya.

— O'v, amaki, oyog'ingizni yig'ishtirib o'tiring, bu pulga kelgan, kalishingizdan ham qimmat turadi...  
Yo'lovchilarning deyarli hammasi shu tomonga bosh burdi. Nafaqa yoshidagi otaxon o'rindiq ostiga tashlab qo'yilgan avtobusning g'ildirak qoplamasi (avtohavaskorlar "kalpak" deydi) ustiga oyog'ini qo'yib o'tirgan ekan (boshqacha o'tirishning iloji ham yo'q).

— Uzr, bolam, bu matohing shunaqa noizlikligini bilmasan.  
Shu joyda gap-so'zga nuqta qo'yilsa ham bo'lardi. Tarbiya ko'rilmagan chiptachi o'zini chamasini ushbu yo'nalishning xo'jayinidek his qildi shekilli, dedi:  
— Farosatdanan bergan ekan-ku...  
Ana endi aytib, farosatdan kimga bergan ekan? Haydovchimiz, chiptachimiz, o'zing yo'lovchilar ko'ringdigi ostiga o'sha buyumni tashlab qo'yibsan-ku! Yana nimaga otang tengi odamga bunaqa tarbiyasizlarcha muomala qilasan? Afsuski, avtobusdagi odamlardan hech kim bu holga e'tiroz bildirmadi, churq etmadi. O'zim aralashishimga to'g'ri keldi:

— Uka, ertalab nonushtaga nima yegansan? — dedim.  
— Tushunmadim...  
— Og'zingdan qo'lansa gaplar chiqayotganiga so'radim-da!

Shundan keyin u menga bunday tarbiyaviy soatni uyimda o'g'lim bilan olib borishim kerakligini zo'r berib tushuntirib qo'yd. Foydasi yo'qligini bilib, boshqa gapirmadim.  
Buyum bozorida. "O'tang — bozor, onang — bozor", deganlaridek, bir-ikki so'm arzonroq bo'lsa hama-da, deb ko'ylak olish maqsadida do'konlarga emas, "Chilonzor buyum bozori"ga bordim. Azaldan qora rangli ko'ylakni yaxshi ko'raman. Uzoqdan turla ranglar orasida qorasi ham osib qo'yilgan rasta oldida to'xtadim.

— Keling, aka, qanaqasidan kerak? Ishga kiyishgami, to'ygami yo sovg'agami?  
Qo'limdan tortilgudek bo'lib o'ziga

qaratgan sotuvchi ancha xushmuomala ko'rindi. Ko'ylakni shu yigitdan xarid qilaman, u ham savdosi yurishganiga xursand bo'lsin, degan xayolda maqsadimni aytdim. Uch-to'rt xilini olib, o'lchamimni chamalab, ulardan birining taxini buzd. Ammo sifati ma'qul bo'lmadi. Boshqasining esa rangi sidirg'a emas, chiziqli bor ekan.

— Olish niyatingiz bormi o'zi, aka? Yo shunchaki bozor aylanib yuribisizmi?

Qarasam, muomalasi sal dag'allashdi. Ko'nglinga yoqsa, olaman-da, dedim. Boshqa gap og'zimdand chiqmadi.

— Olsangiz oling, bo'lmasa, boshimni qotirmang, ana, bozor katta, qidiravering ko'nglingizga yoqqanini, — deya dag'dag'asini boshladi.

— Uka, savdoda og'irroq bo'lish kerak, xaridorga, o'zingdan yoshi katta odamlarga bunaqa muomala qilishning noto'g'ri, — dedim. U ham menga tarbiyaviy soatni qayerda va kim bilan olib borishim kerakligini yana bir marta eslatishdan erinmadi...

\*\*\*

Ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat emas. Farzand tarbiyasida muhim qoidalardan biri bolani yoshligidan jamiyat orasida o'zini chiroyli tutish, barchaga barobar samimiy, kamtarin bo'lish kabi odoblarga o'rgatishdir.

Sharqona lutf, sharqona shirin muomala, sharqona tavozee dunyo ahlining aqlini shoshirib, sharqliklarga nisbatan hurmatini oshirib kelgan. Bu borada o'zbekona muomalaning o'rni ham bo'lakcha edi. Bugun esa ming afsuslar bilan aytishga majburmiz, ma'naviy qashshoqlik sabab muomala madaniyati masalasida maqtangudek ahvolimiz yo'q.

Yuqoridagi kabi chiptachi yo sotuvchilarga kunda-kunora duch kelamiz. Kimdir oxirigacha tortishadi, yana biron "shu bilan teng bo'ldimmi", deb bahsga nuqta qo'yadi. Kishining odamlar bilan qiladigan muomalasiga qarab uning qanday insonligi haqida xulosa chiqarsa bo'ladi. Muomala madaniyati — inson qalbining ko'zgusi, ma'naviy boylk alomati. Muomala madaniyati orqali har qanday kuch bilan ham erishib bo'lmaydigan insoniy martabaga — atrofidagilarning hurmat-izzatiga, mehri, ishonchiga sazovor bo'lish mumkin.

Yurtimiz tinch, turmushimiz farovon ekanini bilan faxrlanamiz. Biroq bu ne'matlarning qadriga yetmay, yanada ko'prog daromad topish maqsadida farzandlar, yaqinlarni ham unutilib qo'yayotgan millatdoshlarimiz yaxshi tushunib olishlari lozimki, ota-ona, farzandlar bilan birga boriga shukr, yo'g'iga sabr qilib, chiroyli tarzda umrguzaronlik qilish, farzandlarini o'z yurti, xalqi taraqqiyoti xizmatidagi avlod qilib tarbiyalash millatimiz ma'naviy xazinasi yanada boyitishdir, aslida.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"

gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4109.  
41157 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova  
Musahhah: Malohat Mingboeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy